



MIFOLOGIYADA BUTUN DUNYO SUV TO‘FONI TAVSIFI

B.A.Xoliqov

Samarqand davlat chet tillar instituti rektori

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahon mifologiyasida butun dunyo suv to‘foni va uning poetik jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Butun dunyo suv to‘fonining diniy manbalardagi, mifologik manbalardagi talqinlari umumlashtirilgan. Ularning mushatarak jihatlari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: mif, mifologiya, folklor, afsona, mifologik syujet, poetik mushohada.

Global suv toshqini haqidagi ma’lumotlar ko‘plab xalqlar mifologik tasavvurlarida va bir qator diniy matnlarda qayd etilgan⁴. Umuman olganda, yer yuzining turli mintaqalarida yashovchi xalqlar orasida 250 dan ortiq badiiy matnlar uchraydi. Insoniyat tarixining dastlabki davrlarida Yerning yalpi, butun yuzasini suv egallashi, ulkan to‘fon quruqlikni butkul egallashi hech qanday ilmiy dalillarga ega emas. Bu syujet bizgacha turli mif, afsonalar va hikoyatlar orqali yetib kelgan. Ulkan To‘fon haqidagi eng qadimiy yozma manbalar Shumer va Akkad mif va afsonalaridir. Suv to‘foni haqida ilk marta miloddan avvalgi XVII asrda yaratilgan Ziusudra haqidagi Shumer va Atrahasis haqidagi Akkad mifologiyalarida xabarlar saqlanib qolingan. Gilgamesh dostonining so‘nggi, miloddan avvalgi VIII asrdan oldin tahrir qilingan versiyasida ham to‘fon haqida ma’lumot berilgan.

“Injil”da keltirilgan to‘fon syujeti nasroniy dini vakillari, ingliz tilli xalqlar madaniyatida, ayniqsa, shuhrat topgan bo‘lsa, musulmon, jumladan, o‘zbek xalqi orasida esa “Qur’oni Karim”da keltirilgan to‘fon haqidagi syujet mashhur bo‘lgan. Mif va ilohiy kitoblarda to‘fon butun dunyo miqyosdagi kataklizm sifatida talqin qilinadi. Unda hayotni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan minimal inson soni va jonivorlardan tashqari barcha tirik mavjudotlar suv toshqinida nobud bo‘ladi. Bunga dunyo va insoniyatning tugashi va ularning qayta tug‘ilishini tushuntiruvchi versiyalar, shuningdek, to‘fondan yoki olovdan dunyoning kelajakdagi yakuni haqidagi esxatologik tushunchalar mavjud⁵.

⁴Лявданский А. К., Пожидаева А. В. (иконография) // Полупроводники – Пустыня [Электронный ресурс]. – 2015. – С. 288-289. ([Большая российская энциклопедия](#): [в 35 т.] / гл. ред. [Ю. С. Осипов](#); 2004-2017. – Т. 27).

⁵Лявданский А.К.; Пожидаева А.В. (иконография) // Полупроводники – Пустыня [Электронный ресурс]. – 2015. – С. 288-289.



Umumjahon to‘fon haqidagi miflarning asosiy sxemasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi. Xudo odamlarga yomon xulq-atvori, buzg‘unchiligi, taqiqlarni inkor qilganligi, hayvonlarni o‘ldirgani yoki boshqa sabablarga ko‘ra yoki hech qanday sababsiz jazo sifatida ulkan suv toshqinini yuboradi. Odatda, solih kishilar yaqinlashib kelayotgan falokat haqida oldindan xabardor qilinadi. Ular najot topish uchun qutqaruv choralari ko‘rishadi: kema, sol, qayiq kabilarni yasashadi, tog‘dan najot istashadi, tez o‘sar baland daraxtdan, toshbaqa qobig‘i, katta qovoq yoki kokos yong‘og‘i po‘stlog‘idan foydalanishadi. Hayvon juftlarini, o‘simlik urug‘larini kemaga olishadi. Muqaddas deb bilingan sanalarda – 7, 40 kun yoki olti oy mobaynida To‘fon davom etadi. So‘ngra yomg‘ir va toshqin to‘xtab, suvlar asta-sekin orqaga qaytadi. Kema tepalik yoki orolga yetib boradi, omon qolganlar kemadan, qovoqdan, daraxtdan, tog‘dan va hokazolardan quruqlikka tushadilar. Omon qolganlar ilohiy amrlarga itoat qilib yangi, pokiza hayotni kechira boshlaydilar. Odamlar oila quradilar, chorva mollari, jonivorlar va o‘simliklar ko‘payib, yerni egallashadi. Bu mifopoetik motiv orqali to‘fon mavzusi tabiat va insonni, kosmologiya va kvazi – tarixni, tabiiy qonun va axloqni birlashtiradigan – Xudo va odamlar o‘rtasidagi ahdni bog‘laydigan eng muhim elementga aylanadi⁶.

Keltirganimizdek, suv to‘foni haqidagi eng qadimgi syujetni shumer mifologiyasida uchratamiz. Bu to‘fonning bosh qahramon Utnapishtim (Ziusudra) hisoblanadi. Shumer mifologiyasida Utnapishtim Shuruppak shahrining donishmand hukmdori. Utnapishtimning to‘fon haqidagi hikoyasiga ko‘ra⁷ Gilgamesh manguilik unsurini izlab Utnapishtim bilan uchrashganda, qariya unga to‘fon haqidagi hikoyani so‘zlab beradi. Unga ko‘ra, Utnapishtim Efrat qirg‘og‘ida joylashgan Shurunnak shahrida sog‘-omon yashab yurganida, xudolar majlis qurishib, haddan tashqari ko‘payib ketgan odamlarni qirishga kelishib oladilar. Ma‘budalar Anu va Enlil bironta odamni falokatdan ogoh qilmaslik shartini qolgan xudolar oldiga quyishadi. Donishmand ma‘bud Ea sodiq va vafodor quli Utnapishtimga rahmi keladi. Ea qasamni buzmaganda holda Utnapishtimni xudolarning hukmidan ogoh qilmoqchi bo‘ladi. Buning uchun Ea Utnapishtimga emas, balkim qamishdan yasalgan o‘tovining devoriga qarab “Ey qamishdan yasalgan uyning devori, Shuruppaka fuqarosi bo‘lgan Utnapishtim Ubartutu o‘g‘li kema yasashga kirishsin” – deydi.

⁶ Топоров В. Н., Соколов М. Н. (иконография) // Мифы народов мира: Энцикл. в 2 т. / гл. ред. С. А. Токарев. – 2-е изд. – Москва: Советская энциклопедия, 1988. – Т. 2 : К–Я. – 719 с.

⁷ Русская историческая библиотека. Рассказ Утнапиштира о потопе.

<https://rushist.com/index.php/mifologiya/3823-rasskaz-utnapishtima-o-potopu> (Murojaat sanasi:

18.03.2024).



Ertalab Utnapishtim shahar aholisi va oqsoqollarini yig'ib, ularga murojaat qilibdi: "Menga ulkan kema yasash uchun erkaklar va bolalarni yig'ingiz. Men Evrat uzanlari, xudo Ea hududlari tomon suzib ketmoqchiman. Men uchun mehnat qiling, mening xudoyim esa sizga baraka, ovda omad, hosilda daromad yuborsin!"

Utnapishtim shahardoshlarini aldab ishlatdi. Tez orada to'rt burchakli qutiga o'xshash, olti qavatli kema yasaladi. Utnapishtim ishni muntazam to'xtatmaslik uchun doimiy ravishda shahar xalqini ho'kiz va qo'ylarni suyib, go'sht bilan boqdi, qizil va oq vinolardan ichirdi. Kema qurilishi tugagach, Utnapishtim uni chuvga tushirib, unga kumush va oltin, turli bo'limlarda esa jonivor va qushlarni, o'ziga atalgan oliy darajadagi xonalarda bolalari, oilasi, xizmatkorlari va hunarmandlarni joyladi.

Shundan keyin dahshatli to'fon boshlandi. Suv hattoki tog'larning cho'qqilarini ham o'z qa'riga tortib ketdi. Halokatli to'fondan xudolarning o'zlari ham qo'rqib ketishdi, biroq endi uni to'xtatishga ojiz qolishdi. Ular qo'rquvdan ko'kda o'z otalari Anu atrofida yig'ilishib, itlarga o'xshab, bir-birlariga tiqilishib, qo'rquvdan qaltiray boshlashdi. Sevgi ma'budasi Ishtar to'lg'oqdagi xotin kabi qichqirib, yerga to'fon yuborish hukmi chiqqan xudolar majlisi kunini qarg'ay boshladi. Olti kundan keyin to'fon to'xtadi va suvlar orqaga qayta boshladi...

"Injil"da keltirilgan to'fon odamlarning gunohlari uchun jazo sifatida talqin qilinadi.

To'fon haqida Injilning asosan Ibtido kitobida keltirilgan (IBT.. 6:5 – 9:17). Injilning boshqa kitoblarida bu to'fon haqida faqat qisqacha eslatmalar mavjud: Ishayo 54: 9; Ser. 44: 16-18; yoki uning bosh qahramoni Nuh haqidagi rivoyatda ham to'fon fojiasi batafsil bayon qilinadi (Hizq. 14:14; Luqo 3: 36)⁸. Muqaddas kitob hikoyalariga ko'ra, Xudo taqvorod va solih Nuh payg'ambarni insoniyatni yo'q qilish hukmi haqida oldindan xabardor qiladi va unga ulkan kema yasashni va uni uzoq muddatga yetarli narsalar bilan jihozlashni aytadi. Nuh qurgan kemasiga o'zi bilan oilasini shuningdek, har bir tur jonivordan juftlik qilib olishi kerak edi. Nuh kemani qurib, uni jihozlaganidan so'ng, xudo yer yuziga suv to'fonini yubordi, oqibatda barcha tirik mavjudot halok bo'ldi. To'fonning suvi shunchalik ko'tarilgan ediki, suv yuzasida suzib yurgan Nuh kemasi tog' cho'qqilaridan ham yuqoriroqda edi. Ma'lum vaqt o'tgach, yomg'ir to'xtadi va suv orqaga qayta boshladi. To'fondan keyin qirq kun o'tgach, Nuh qarg'ani uchirib yubordi, qush quruqlikni topa olmay, yana

⁸Потоп: / А. К. Лявданский; А. В. Пожидаева (иконография) // Полупроводники – Пустыня [Электронный ресурс]. – 2015. – С.288-289. – (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004-2017. – Т.27).



kemaga qaytib keldi. Keyin Nuh payg'ambar yetti kunlik navbat bilan kaptarni uch marta uchiradi. Birinchi marta qush hech narsasiz kemaga qaytib keldi, ikkinchi marta tumshug'ida zaytun yaprog'ini olib keldi, uchinchi safar esa kaptar kemaga qaytib kelmadi, anglashildiki, u quruqlikni topishga muvaffaq bo'lgan. Kema quruqlikka chiqqach, Nuh qurbonlik qiladi, xudo esa kelajakda insoniyatni yo'q qilmaslikka va zarur tartibni o'rnatishga va'da beradi. Va'daning sharofatiga ko'kda kamalak tovlandi, xudo taqvorod Nuhga, uning avlodlariga va yer yuzidagi barcha narsaga barakot berdi⁹.

E'tiborli jihati shundaki, qadimgi turkiy mifologiyada ham suv to'foni haqidagi mif saqlanib qolgan. Jumladan, butun yer yuzi suv bilan qoplanish jarayoni to'fon¹⁰ nomi bilan keltiriladi. Bunday syujet 4576 she'riy va 19 nasriy misradan iborat bo'lgan Boshqird xalq eposi "O'rol Botir" dostonida keltirilgan. Unda O'rol botirning inisi, Shulgen sehrli hasa yordamida dunyoviy suv to'fonini uyushtiradi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bu dostonga mashhur va sirli shumerlar ham o'z ta'sirini o'tkazgan¹¹.

Doston kosmogonik miflarga asoslangan. Ularda dunyoning yaratilishi, undagi insonning o'zni, shuningdek, boshqird xalqining odob-axloq me'yorlarining paydo bo'lishi badiiy tarzda tasvirlangan. Dostonning bosh qahramoni O'rol botirning ajdaho, ilon va devlar bilan kurashi zaminida odamlarning tabiat inijliklari, kataklizmlari bilan bo'lgan kurashi aks etgan. "O'rol Botir" dostoni finlarning "Kalevala" dostoni, qadimgi ingliz "Beovulf" va germanlarning "Nibelunglar qo'shig'i" eposlari bilan bir darajadagi epik asardir. Boshqirdlarda bunday epik asarlar kuboyir deb ataladi va odatda do'mbira yoki sibizg'a sadolari ostida ijro etiladi¹².

Ingliz xalq ertaklari va miflarida bevosita dunyo suv toshqini haqida xabar berilmaydi, ammo "Qirol Artur" haqidagi mif va rivoyatlarda suv toshqini yoki quruqlikdagi ayrim yerlarni suv bosishi haqida ma'lumotlar beriladi. Bunda qadimgi Kelt miflarida tasvirlangan suv toshqinlari va qayta tiklanish motivlari o'z ta'sirini o'tkazgan. Ingliz tilidagi badiiy adabiyotda Buyuk to'fon (Great Flood) mavzusi turli ko'rinishlarda, xususan, "Injil" motivlari, mifologik epizodlar zamonaviy adabiy talqinlarda uchraydi. Ularda

⁹Потоп – статья из Электронной еврейской энциклопедии.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D1%80%D0%B0%>

¹⁰ [Хисамитдинова Ф. Г.](#) Мифологический словарь башкирского языка. – Москва: Наука, 2010. – 452 с.

¹¹ Урал-Батыр: всемирный потоп, шумеры и тысячелик герой.

<https://dzen.ru/a/ZYV277ChZQJn5iMT>

¹²Урал-Батыр: всемирный потоп, шумеры и тысячелик герой.

<https://dzen.ru/a/ZYV277ChZQJn5iMT>



asosan insoniyatni yo‘q qiladigan ulkan to‘fon, tanlangan odamlarning yirik kema yoki boshqa bir vosita yordamida omon qolishi haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida Rabg‘uziy, Alisher Navoiy ijodida “Qur’oni Karim” motivlari asosida maydonga kelgan Nuh payg‘ambar va u bilan bog‘liq suv to‘foni badiiy talqin qilinadi.

Yevropa va musulmon Sharq xalqlari folklori va diniy adabiyotida Nuh va uning solih farzandlari, qaldirg‘och, kaptar kabi qo‘shlar ijobiy obrazlar, insoniyatni to‘fondan saqlanishiga qarshilik qiluvchi payg‘ambarning yaqinlari, kofir qavmi, kemani cho‘kish sabablarini keltirib chiqaruvchi kemiruvchilar, kemadagi tartibni buzuvchi jonivorlar esa, tabiiyki, salbiy obrazlar sifatida talqin qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Лявданский А. К., Пожидаева А. В. (иконография) // Полупроводники – Пустыня [Электронный ресурс]. – 2015. – С. 288-289.
2. Топоров В. Н., Соколов М. Н. (иконография) // Мифы народов мира: Энцикл. в 2 т. / гл. ред. С. А. Токарев. – 2-е изд. – Москва: Советская энциклопедия, 1988. – Т. 2 : К–Я. – 719 с.
3. Русская историческая библиотека. Рассказ Утнаписхима о потопе. <https://rushist.com/index.php/mifologiya/3823-rasskaz-utnapishtima-o-potope> (Murojaat sanasi: 18.03.2024).
4. Потоп: / А. К. Лявданский; А. В. Пожидаева (иконография) // Полупроводники – Пустыня [Электронный ресурс]. – 2015. – С.288-289. – (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004-2017. – Т.27).
5. [Хисамитдинова Ф. Г.](#) Мифологический словарь башкирского языка. – Москва: Наука, 2010. – 452 с.
6. Урал-Батыр: всемирный потоп, шумеры и тысячелик герой. <https://dzen.ru/a/ZYV277ChZQJn5iMT> (Murojaat sanasi: 18.03.2024).